

ADABIY TILDAN LEKSIK FARQ QILUVCHI DIALEKTAL FRAZEOLOGIZMLAR

(Qashqadaryo qipchoq shevalari misolida)

Islomova Shoirra

Toshkent DO‘TAU tayanch doktoranti,

shoiraislomova@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada dialektal frazemalar, ularning o‘ziga xos xususiyatlari, adabiy tildan leksik farq qiluvchi hamda adabiy tilda kuzatilmaydigan shevaga xos frazemalar haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar. Qashqadaryo qipchoq shevasi, dialektal frazema, leksik almashish, komponent, leksik tarkib.

Аннотация

В данной статье рассматриваются диалектные фразеологизмы, их специфические особенности, диалектные фразеологизмы, которые лексически отличаются от литературного языка и не наблюдаются в литературном языке.

Ключевые слова. Кашкадарьинский кыпчакский диалект, диалектная фраза, лексический обмен, компонент, лексическое содержание.

Abstract

This article discusses dialectal idioms, their specific features, dialectal idioms that differ lexically from the literary language and are not observed in the literary language.

Key words. Kashkadarya kipchak dialect, dialectal phrase, lexical exchange, component, lexical content.

Qashqadaryo qipchoq shevalari frazeologizmlarini kuzatishlarimiz natijasida, sheva leksikasida adabiy tilga mos, adabiy tildan leksik va grammatik farq qiluvchi hamda adabiy tilda kuzatilmaydigan, shuningdek, yangi paydo bo‘layotgan frazeologizmlar

uchrashi namoyon bo'ldi. Jumladan, *lipti kuygan*(charchab ketgan), *jala jovdi*(bir paytda, ikki yoki uch kishining bir kishiga gapirishi), *choponim pitsa*, *to'y qilaman*(tez bitmagan ishga nisbatan), *boshim pitladi*(ishim ko'payib ketdi), *o'zi chiqqan cho'qqi omon bo'lsa bas*(beg'am, beparvo), *tura tentak*(sodda tabiatli, hech narsani o'ylamay gapiraveradi), *orqovingni tort*(yashash uchun o'zing harakat qil), *ovga chiqqan bo'riday*(sergak), *har jolobasidan o'ttiz gap chiqadi*(o'ta shantaj), *qo'yimdan olib, kunjimga soldim*(sadaqani begonagamas, o'zimiriga berdim) *zo'm ko'tan*(shantaj), *indiyini urib ketgan*(charchab ketgan), *ko'rasi ko'rmagan*(insofsiz), *kel-keli kelmoq*(omadi kelmoq), *xiy bo'loq*(semirmoq), *jo'rbakdan jo'liqqan*(yoshigidan singgan) singari sheva muloqatida faol qo'llanishda bo'lgan frazemalar adabiy tilda uchramaydi.

“Leksik tarkibining turg'un bo'lishi iboralarining o'ziga xos belgilaridan biri, ammo bu belgi iboralarining to'rtidan uch qismini qamrab oladi, to'rtidan bir qismi esa bu talabga bo'ysinmaydi, uni cheklaydi, umumiy belgidan juziy belgiga aylantirib qo'yadi.”¹ Leksik almashish holati barcha til birliklarida uchragani singari iboralarda ham namoyon bo'ladi. Adabiy tilda mavjud bo'lgan *itining tuvagi oltindan* (juda ham boy, oshib-toshib ketgan boy, *O'TIL* ikkinchi jild, 241-bet) iborasining shevada itining jolog'i tilladan varianti uchraydi. Yoki *itning keyingi oyog'i* (*ish-faoliyat va shu kabilarda qatordagilardan eng oxirida ekanligini bildiradi, O'TIL*) iborasining Janubiy Qashqadaryo qipchoq shevalarida *itning orqa oyog'i* varianti qo'llaniladi. Ba'zi iboralar adabiy tilda mavjud emas, biroq boshqa dialektlarda leksik o'zgarishlarga uchragan holda namoyon bo'ladi. Jumladan, Qashqadaryo qipchoq shevalari leksikasida mavjud bo'lgan *otning jemini jeb, toyning qilg'ini qilmoq* iborasi Janubiy Surxondaryo shevalarida *xo'kizning o'tini yeb, qo'yning qilg'ini qilmoq* shaklida yoki shevadagi *men qilaman to'qqiz, Hudoyim qiladi sakkiz* iborasi Farg'ona guruh shevalarida² *men qilaman o'ttiz, tangrim qilar tep-teki* tarzda uchraydi. Bir dialektning o'zida bir iboraning turli leksik o'zgarishlarga uchragan shakli qo'llaniladi. Janubiy Qashqadaryo dialektlarida *itning kallasini toboqqa solsang dumalab ketadi* iborasi Quyi Qashqadaryo hududlarida *itning kallasini idishga solsang turmaydi* shaklida qo'llaniladi. Sheva vakillari o'zining qarashlari, bo'lib o'tgan voqealar, yashab

¹ Раҳматуллаев Ш. Нутқимиз кўрки. -Т.: 1970.-Б. 37.

² Хайдарали Узоқов Диалектал фразеологизмлар ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти, 1974, №6. –Б. –61.

turgan muhitidan kelib chiqib, bir iboraning turli variantlarini yaratadi. Masalan, *bo'lar ish bo'ldi*, *bo'yog'i sindi* iborasining *bo'lar ish bo'ldi*, *Xo'jam polvon o'ldi* varianti, bo'lib o'tgan voqea asosida yaratilgan bo'lsa, *ichiga chiroq yoqsa yorishmaydi* iborasining *ichiga sham yoqsa yorishmaydi* shakli tildagi o'zgarishlar bilan bog'liq holda yuzaga kelgan. Hozir jamiyatimizda yorug'lik tarqatuvchi hamma jismga nisbatan chiroq so'zi qollanilsa-da, sheva vakillari muloqatida chiroq leksemasi "kerosinga pilik solish vositasi bilan yorituvchi, asos va shisha qismlardan tashkil topgan asbob" ma'nosida qo'llaniladi. Bugungi kunda bunday asbob vazifasini sham bajarib kelmoqda. Sheva vakillari turmushidagi bunday leksik almashish, ularning tilida, iboralarida ham o'z aksini topgan.

Ibora tarkibidagi leksik o'zgarish ba'zan bir komponent orasida, ba'zan bir komponentdan boshqa barcha qismlarda kuzatiladi. Jumladan, adabiy tilda mavjud bo'lgan bo'yin bermaslik(itoat qilmaslik, bo'ysunmaslik; rozi bo'lmaslik)³ iborasining Qashqadaryo qipchoq shevalarida *bosh bermaslik*, *bo'y bermaslik* shakllari uchraydi. Keltirilgan iboralarda leksik almashish bitta qism orasida kuzatilsa, *ichini mushuk tirnamoq*(*ruhan bezovtalanmoq*, O'TIL 249-bet) iborasining *shevada ichini it talamoq* variant qo'llanilib, bu ibora tarkibidagi leksik almashish ikkita komponent orasida kuzatilgan. Adabiy tilda mavjud "burgaga achchiq qilib, ko'rpani kuydirmoq" (arzimagan narsani deb jahl ostida nojo'ya, zararli ishni qilib qo'ymoq, O'TFL 112-bet). Iborasining shevada *pitga o'chashib*, *ko'rpani joxmoq* shakli qo'llaniladi. Ushbu iborada esa bir komponentdan boshqa barcha komponentlarda leksik o'zgarish kuzatilgan.

Toshkent shevasi frazeologizmlarini leksik-semantik belgilariga ko'ra tasnif qilgan olim I.Sodiqov tasnifiga tayangan holda⁴ Qashqadaryo qipchoq shevalari frazeologik iboralarini leksik jihatariga ko'ra quyidagi turlarga ajratib tasnif qildik.

- a. Adabiy tildagi iboralardan bitta komponenti bilan farq qiladigan frazeologik iboralar.

³ Sh.Rahmatullayev, N.Mahmudov, Z.Xolmanova, I.O'razova, K.Rixsiyeva. O'zbek tili frazeologik lug'ati. Toshkent-2022. 116-bet.

⁴ Содиқов Т. Тошкент область ўзбек шевалари лексикаси. Номзодлик диссертацияси. - Тошкент, 1968. – Б. 116.

1-jadval

Qashqadaryo shevalarida	qipchoq	Adabiy tilda	Ma'nosi
Ikki jon ovorasi		Ikki jahon ovorasi	Ikki o'rtada sarson-sargardon bo'lmoq.
Boshida tayoq sindi		Boshida kaltak sindi	Zarbaga nohaq duchor bo'lmoq.
Itning orqa oyog'i		Itning keying oyog'i	Bilish, rivojlanish jarayonida eng keyinda qolgan.
Kalima qaytarmoq		Kalima o'girmoq	Musulmonligini tasdiqlovchi arabcha iborani takror-takror aytmoq.
Ko'ksiga shamol tegmoq		Ko'kragiga shamol tegmoq	Mashaqqatli kunlardan keyin huzur-halovat ko'ra boshlamoq.
Suyagi jengil		Oyoq-qo'li yengil	Yugurib-yelib xizmat qiladigan.
Bo'sag'asidan qaramoq		Ostonasidan hatlamoq	Uyiga kirmoq.
Ovzi polvon		Og'zi katta	Soxta, kibr-havoli, maqtanishni yaxshi ko'radigan.
Vo'ziga qaratmoq		Og'ziga qaratmoq	Nutqi bilan mahliyo qilib olmoq
Patagiga qurt tushgan		Paytvasiga qurt tushgan	Xotirjamligi buzilmoq.
Kallasini qoqib qo'liga bermoq		Miyasini qoqib qo'liga bermoq	Shovqini bilan buzmoq.
Qo'li yuqa		Qo'li kalta	Cheklangan imkoniyatga ega.
Bobomning kallasiday		Tuyaning kallasiday	Hajmi odatdagidan ancha katta.
Tili yetti qarich bo'lmoq		Tilini bir qarich qilmoq	Maqtanishga, gapirishga haqli bo'lmoq.
O'lsa o'ligi bebit		O'lsa o'ligi ortiq	Beqiyos, afzal

b. Adabiy tildagi iboralardan ikkita komponenti bilan farq qiladigan frazeologik iboralar.

2-jadval

Qashqadaryo shevalarida	qipchoq	Adabiy tilda	Ma'nosi
Jahli burnining uchida		Achchig'i burnining ustida	Bekorga, sal narsaga jahli qistayveradi.
Bo'sag'asidan biroq qaramagan		Bo'sag'asi odam ko'rmagan	Odamlarni xushlamaydigan inson.
Suvga oborib, suvlamay qaytmoq		Daryoga oborib, sug'ormay kelmoq	Aldamoq, hiyla ishlatmoq, juda ayyor kishiga nisbatan.
Bo'yniga jip tortmoq		Bo'yniga arqon solmoq	Majbur qilmoq.
Xotinlarning kattasi, qizlarning dugonasi		Xotinlarning xolasi qizlarning yangasi	Vaqtini ayollar orasida o'tkazuvchi erkak kishiga nisbatan aytilgan.
Tuzini yeb dasturxoniga tupurmoq		Tuzini ichib, tuzlig'iga tupurmoq	Yaxshilikka yomonlik qaytarmoq

Ko'ngliga botmoq	O'g'ir botmoq	Adolatsiz deb bilgani uchun malol kelmoq
Ovziga ega bo'lolmaslik	Og'ziga kuchi yetmagan	Bilib-bilmay gapirish, o'zini tiya olmaydigan
Qaddini ikki buklatmoq	Qaddini kamon etmoq	Gavdaning beldan yuqori qismini ko'tarolmayenkayib qolmoq

c. Bir komponentning birdan ortiq komponentga aylanishi.

3- jadval

Qashqadaryo qipchoq shevalarida	Adabiy tilda	Ma'nosi
To'rt tarafi keng maydon	To'rt tarafi qibla	Qayoqqa xohlasangiz ketavering
Kashal bo'lmoq	Ko'zi to'rt bo'lmoq	Yo'liga intizor

d. Birdan ortiq komponentning bir komponentga aylanishi.

4-jadval

Keltirilgan misollardan ayonki, leksik almashishlar bir komponent o'rtasida balki

Qashqadaryo qipchoq shevalarida	Adabiy tilda	Ma'nosi
Olovga benzin sepmoq	Alanga ustiga kerosin quymoq	Keskinlashtirmoq, gij-gijlamoq
Yuragi qoq o'rtasidan bo'linmoq	Yuragi qoq yorilmoq	Juda kuchli hayajonlanmoq

bir komponentdan boshqa barcha komponentlar o'rtasida ham kuzatiladi. Bunda leksik o'zgarishlarga uchragan iboralar tarkibidagi leksemalar soni o'zgarmaydi, o'zgarganda ham ma'no yaxlitligiga putir yetmaydi.

Xulasa qilib aytganda, sheva dialektlarida adabiy tilda mavjud bo'lmagan yoki adabiy tildan leksik farq qiluvchi frazemalar talaygina. Adabiy til xalq shevalaridan oziqlanar, ular orqali rivoj topar ekan, adabiy tilda barqaror o'rin topmagan bu kabi birliklarni o'z vaqtida til egalari nutqidan yozib olish, to'plash, turli jihatlarini o'rganish hamda izohli lug'atlarini yaratib, adabiy tilni boyitib borish lozimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Раҳматуллаев Ш. Нуткимиз кўрки. -Т.: 1970.-Б. 37.
2. Хайдарали Узоқов Дialeктал фразеологизмлар ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти, 1974, №6.-Б.-61.

3. Sh.Rahmatullayev, N.Mahmudov, Z.Xolmanova, I.O'razova, K.Rixsiyeva. O'zbek tili frazeologik lug'ati. Toshkent–2022. 116-bet.

4. Содиқов Т. Тошкент область ўзбек шевалари лексикаси. Номзодлик диссертацияси. - Тошкент, 1968. – Б. 116.

